XALQ DEPUTATLARI JIZZAX SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2026-yil 10-mart VII-18-57-3-55-K/26 Jizzax shahar

2026-yilda Jizzax shahri bo‘yicha alkogol mahsulotlarini realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalarini oshirish to‘g‘risida

“2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–387-sonli qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6-, 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Jizzax shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 387-sonli qarori 2-bandi v-kichik bandida xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlariga alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalarini 20 foizgacha oshirish vakolati berilganligi ijro uchun qabul qilinsin.

2. 2026-yil uchun Jizzax shahar hududida alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning miqdorlari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Jizzax shahar hokimining birinchi o‘rinbosari S.Haydarov, shahar Soliq inspeksiyasi (X.Umurov) mazkur qaror ijrosini o‘z vaqtida va samarali ta’minlash vazifalari yuklatilsin.

4. Ushbu qaror “Jizzax ovozi” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda shahar hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

5. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran 3 oydan keyin kuchga kiradi.

6. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish, xalq deputatlari shahar Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Sh.Azimov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **IMOMOV MUSAXON XXX**

Xalq deputatlari Jizzax shahar
Kengashining
2026-yil 10-martdagi
VII-18-57-3-55-K/26 -son qaroriga
1-ilova

2026-yil uchun Jizzax shahri hududida alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning miqdorlari

Yig‘im turi	Bir oyga chegaralangan stavkalar (so‘mda)		
	O‘RQ-1105-sonli Qonuni 9-ilovasiga asosan belgilangan chegaralangan stavkalar	Oshiruvchi stavka (foizda)	2026-yil uchun to‘lanadigan yig‘im miqdori
Alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘im	840 000	20 %	1 008 000
Umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘im	420 000	20 %	504 000